



NASRIY VA SHE'RIY MATNLARDA DEYKSISNING VOQELANISHI

Urmonova Hurriyat Olmos qizi

O'zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti
Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada deyksis tushunchasi va uning turlari haqida fikr yuritiladi. Hamda nasriy va she'riy matnlarda deyksisning voqelanishi va bu orqali yuzaga keluvchi holatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: deyksis, shaxs deyksisi, zamon deyksisi, makon deyksisi, diskurs deyksisi, pleonazm, adresat, adresant.

Hozirgi vaqtda deyksisni lingvistik tushuncha ekanligi masalalari bo'yicha turli fikrlar mavjud. Deyksis til birliklarining kontekst, nutq vaziyati bilan bog'liq pragmatik jihatini o'rganishga e'tibor kuchaygach, deyksis muammosi pragmatikaning asosiy tadqiq obyekti sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Jahon va o'zbek tilshunosligida ham bu bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish hali hamon davom etmoqda. Deyksis badiiy adabiyotda ham o'ziga xos o'ringa ega.

Badiiy matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhimi ham shundaki, unda emotsional bo'yoqdor so'zlarga, sheva so'zlariga, tarixiy va arxaik so'zlarga, jargon va argolarga, ko'chma ma'noli so'zlarga, ma'nodosh, shakldosh, o'xshash talaffuzli va zid ma'noli so'zlarga, shuningdek ibora, maqol-matal va aforizm kabi birliklarga keng o'rin beriladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har qanday matn o'ziga xos sistemadir. Buni o'zaro bir-birini taqozo qiladigan halqalar majmuiga o'xshatish mumkin: tovush(harf)lar → so'zlar → iboralar → gaplar → abzats → bo'lim, qism, boblar.¹ Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, badiiy matnda asar talabi bilan tilning barcha imkoniyatlaridan foydalaniladi. Chunki badiiy matn o'z o'quvchisini topishi, kitobxonga ta'sir o'tkazishi va zerikarlilikning oldini olish maqsadida ma'lum chegaralarga qaramasdan yaratiladi. Asarlarda ba'zida qisqalik, lo'ndalik, betakrorlik birinchi planga chiqadi. Shunda albatta deyksisning yordami salmoqlidir. Masalan, *Gapdan gap chiqib ma'lum bo'lishicha o'sha kuni Anvarga suv bergan xotin bu qizning onasi Muborakxonim, "mard bo'l" degan qora kishi uning otasi Hakimjon ekan.*(A.Qahhor. "Anor"to'plam) Ko'rinib turibdiki, misolda zamon deyksisi qo'llanmoqda. Ya'ni ijodkor yana o'sha kunni qayta takrorlab, izohlamasdan

¹ Muhamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent, 2011. B – 80.



shunchaki o'sha kun deya ishora qilmoqda. U kun har ikki nutqiy faoliyat a'zolariga ham ayon. Darak gaplarda zamon deysisi. Voqelikda kechayotgan hodisalar bayonida va ular haqida axborot uzatishda uning kechish davri, paytini ko'rsatish muhimdir. Bunday ko'rsatish vazifasini zamon (vaqt) deysisi vositalari amalga oshiradi.² *Bir kuni skameykani tag-tugi bilan arralab tashlamoqchi bo'ldim* (O'.Hoshimov). Nutqiy faoliyat bajarilishi vaqt davriyligi doirasidan tashqarida yuzaga kelmaydi. Har qanday nutqiy voqelik ma'lum bir davrda o'z aksini topadi. Ma'lumki, zamon deysisini ifodalovchi vositalar nutqiy jarayondan oldin yoki keyin voqelanganligini anglatadi.

Ma'lum bir voqea amalga oshishida zamon ham, makon ham ishtirok etadi. Demakki, buni har ikki deysis turida ko'ra olamiz. *Bu rassom qalbi va muhabbatining timsoli edi. Rassom o'zi yaratgan ilohani ko'rib, aqli-xushidan ayrilgan, u malikani ham, bergan va'dasini ham unutmadi; "Malikam, – dedi rassom, – men sizning muhabbatigizda yillar mashaqqat chekdim, yig'ladim-siqtadim, qalbmni g'am-anduh so'ndirdi.* (Nazar Eshonqul "Uch hikoya") bu parchada qo'llangan ko'rsatish olmoshi shaxs deysisiga ishora qilmoqda. Yigitning majnunsifat holi barchaga ayon bo'lgani uchun uni to'g'ridan to'g'ri muallif bu rassom deya aytib o'tmoqda.

Jumladan, she'riy matnlarda ham deysis faol qo'llanishda bo'ladi. Buni namunalarda ko'rib chiqamiz.

Gullar kutdi bag'rin qon qilib,

Dil oldida qoldim uyatga.

Bir baxtiyor kapalak bo'lib,

Uchгим kelar o'sha jannatga. (B.Fazliddin "Sen qachon gullaysan")

Bu namuna alohida e'tiborga molik. Ijodkorning naqadar buyuk iste'dod sohibi ekanligidan dalolat beruvchi misralar, desak bo'ladi. Ya'ni musulmonlar orasida Qur'on-u karim oyatlariga tayanilgan holatda, albatta, Jannat kamchilik va qusurlarsiz ajoyib joy, bo'ston ekanligi, alam-g'amlarning u yerda bo'lmasligi va jamiki musulmon ahli shu makonga qarab intilishlari shoirning birgina o'sha birligini Jannat so'zi oldida qo'llashi bilan anglashilib turibdi. Bizningcha, musulmon bo'lgan kishi buni payqashi also qiyin emas. Hatto xalqimiz orasida bunga mos o'xshatish, barqaror birikmalar talaygina. Masalan, biror go'zal joyni ko'rganda Allohinning mo'jizasiga qoyil qolib, *Jannat kabidir* deyishadi.

Makon deysisini hosil qilishda *qayerda?* so'roq olmoshi yordamchi dedik, ammo bu so'roq olmoshi faqat makon, joyga, o'ringa ishora qiladi deyish xato, chunki u ijtimoiy

² Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат и.н, 2008. – Б. 174.



Learning and Sustainable Innovation

mavqega ham ishora qilishi mumkin:

Qaydasan, qalbimni tirnagan so‘roq,

Qaydasan, ilhom baxsh aylagan onlar?

Qaydasan, men seni unutgim kelmas,

Umr yo‘llarimning totli damlari. (A.Oripov “Hayrat”)

Bu kabi holatlar bilan anaforani deysisga yondosh hodisa deyishimiz ham mumkin.

Qachonlardir gumon olmoshi yordamida hosil qilingan deysis so‘zlovchi va tinglovchi uchun ko‘rinmagan, ammo har ikkisiga ham ayon bo‘lgan zamonga ishora qilgan:³ *Odamning xotirasi dushmanlik yoki nodushmanlik ruhida bo‘lishi mumkinmi, axir? Xotira – bu qachonlardir o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqealar, hozir esa ular mavjud emas. Demak, inson haqiqatda nimaki sodir bo‘lgan bo‘lsa, o‘shani eslaydi.* (Chingiz Aytmatov “Asrga tatigulik kun”) Parchada qo‘llangan qachonlardir deysis birligi har qanday insonning o‘z xotirasi bo‘lishiga ishora qilmoqda. *Yana uning aytishicha, har bir inson qachonlardir, tug‘ilmasdan ilgari parranda, yo hayvon, yoki hasharot qiyofasida yashab kelgan emish.* Yana ushbu asardan olingan parchada esa ishora umuman boshqa tushunchaga qaratilmoqda. Demak, ma’lum bir deytik birlikni olib faqat shu holatga ishora qilish uchun qo‘llaniladi, deya olmaymiz. Bunda deysisning imkoniyat doirasini chegaralab qo‘yamiz. Bu kontekst talabi bilan vujudga keladigan hodisa bo‘lib, bir birlik minglab voqealarga ishora qilish imkoniyatiga ega. Ma’lumot o‘rnida aytish mumkinki, ba’zi adabiyotlarda predmet deysisi haqida ma’lumotlar kam. Deysisning bu turi biror buyumga so‘zlovchi tomonidan ishora qilinadi. Ammo biz buni ham e’tibordan chetda qoldirmadik, bir qancha namunalar orqali tahlil qilamiz.

Qo‘llarida Cho‘g‘ni asragay qanday,

Nahot, o‘chib borar asriy bu shamlar?

Jannatga buyurtma berib qo‘yganday,

Nega shoshilmaydi odamlar?! (B.Fazliddin “Sen qachon gullaysan”)

E’tibor beradigan bo‘lsak, shoir ijodida oxiratga do‘zax va Jannat o‘rtasidagi tafovut masalasi haqidagi she’rlar bisyorgina. Bu she’r shunday she’rlar sirasidan bo‘lib, ko‘rsatish olmoshi orqali shoir bir qarashda shamga ishora qilayotgandek ko‘rinadi. Aslida, sham orqali umrlarni ifodalamoqda. Ya’ni yonishni boshlagan sham bir kun kelib o‘chgani kabi inson umri ham abadiy emas. har bir narsaning foniyligi shamga berilgan nisbat bilan voqelanmoqda.

³ Sultanova X. Xurshid Davron ijodida deysisning ifodalanishi. Научные исследования и общественные проблемы. 2023. Vol. 2. No. 1.



Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, deyxsisning markazida doimo so‘zlovchi turadi. Shaxs, joy va vaqtga qarab deyxsis ham o‘zgaraveradi. Deyksis faqat ishora emas, u ijtimoiy munosabat hamdir. Kontekstdan tashqarida deyxsis hech qanday ma’noga ega emas. Chunki adresat va adresant munosabatlari deyxsis uchun juda muhim. Deyksis shunchaki til hodisasi emas, ya’ni u shunchaki ishora qilmaydi. So‘zlovchining olamdagi o‘rnini belgilab beruvchi bir “koordinata tizimi” kabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent, 2011.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат и.н, 2008.
3. Sultanova X. Xurshid Davron ijodida deyxsisning ifodalanishi. Научные исследования и общественные проблемы. 2023. Vol. 2. No. 1.